

## ADABIYOT TA'LIMIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ QILISH

*Zamira Ismailova Rasuljonovna*

*Namangan viloyati Mingbuloq tumani MMTB tasarrufidagi  
6-IDIM Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish, adabiyot ta'limida muammoli o'qitishning o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati, adabiyot ta'limiga xos yangi pedagogik texnologiyalar to'g'risida to'liq bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** adabiyot ta'limi, pedagogik texnologiyalar, muammoli o'qitish, texnologik yondashish.

### **Kirish:**

Hozirgi jadallik bilan rivojlanayotgan davrda adabiyot fanini o'qitishning eng optimal texnologiyalarini yaratish, har bir darsga texnologik yondashish, turli interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi va natijaviy faoliyatni yuzaga keltiradi. Adabiy ta'limga xos bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalar sirasiga hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, muammoli texnologiya hamda o'yin texnologiyasini kiritishimiz mumkin. Bugungi kunda o'quvchi har tomonlama ilg'or bo'lishga intiladi. Hozir o'quvchining xarakteri, zamonaviy muhit, o'ta darajada takomillashyotgan jarayonlar uni mustaqil fikr egasi, har tomondan sog'lom, ma'naviyatli, qat'iy qilib tarbiyalashni taqozo qilmoqda.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Adabiyot ta'limi har tomonlama hamkorlikda o'qitish texnologiyasini talab qiladi. Negaki adabiyot darsi o'z mazmun mohiyati, maqsad va vazifalaridan kelib chiqib o'qituvchining yakka holatdagi faoliyatiga tayana olmaydi. Agar adabiyot o'qitish hamkorlik ta'limiga asoslanmasa u holda eskidan qolib bugungi vaqtgacha ayrim darslarda foydalanyotgan tayyor materialni o'qib berish bilan cheklanib qoladigan samarasiz va o'ta mohiyatsiz faoliyatga aylanib qoladi. Darhaqiqat, adabiyot fanining maqsadi komil shaxs tarbiyasi va unda insoniy fazilatlarini kamol toptirish sanaladi.

Adabiyot darslarida hamkorlik pedagogikasining turli shakllaridan foydalanish mumkin. Jumladan, adabiyot darslarini jamoaviy tarzda ham, guruh tarzida va individual shaklda ham tashkil etish mumkin. Ya'ni adabiy ta'limda shunday mavzular mavjudki, uni butun bir sinf jamoasi tarzida o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Bunga biz nazariy bilimlarni beruvchi darslarni misol keltirishimiz mumkin. Misol uchun, yozuvchilarning hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar yoki adabiy tushunchalarni yetkazishda o'quvchilarning hammasini qamrab olishga harakat qilish asosiy sanaladi.

### **Natijalar:**

Adabiyot ta'limida muammoli texnologiyalarning foydalanishi o'quvchining erkin fikrlashi, badiiy asar mazmun mohiyatini chuqur anglab yetishi, adabiy tushunchalarni, yozuvchi va uning hayoti ijodiga bog'liq jarayonlarni to'liq o'zlashtirishi uchun asosiy ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta'lim texnologiyasi adabiyot ta'limida amaliy tomondan hali o'z o'zini to'liq namoyon qilgani yo'q.

Bugungi vaqtda adabiyot ta'limida muammoli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalar nisbatan kamdir.

**Muhokama:**

Adabiyot ta'limi har tomondan hamkorlik faoliyatiga asoslanadi. Hamkorlikda o'qitish adabiyot darslarining samaradorligini ta'minlovchi eng asosiy omillardan biridir. Binobarin, adabiyotda, badiiy asar tahlili jarayoni bo'ladimi, yoki ma'lum qahramon xarakterini o'rganib taftish etish bo'ladimi, hammasida murakkabliklar yotadi. Shuning uchun darslarda o'qituvchining yolg'iz holda faoliyat ko'rsatishi, o'quvchining nafaol bo'lishi asl mohiyat va mazmunini yetkazish uchun yetarlicha sharoit yaratmaydi.

Adabiyot ta'limi bu ruhiyat tarbiyasi va shu bilan birga fikr tarbiyasidir. Ya'ni adabiyot yordamida biz yosh avlod tafakkur olamini kengaytirishimiz va erkin fikr egasi qilib tarbiyalashimiz mumkin. Adabiyot o'qitishning muhim vazifalaridan biri ham aynan erkin fikrga ega bo'lgan va uni og'zaki himoya qila oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Bu borada biz adabiyot o'qituvchilari uchun yangi pedagogik texnologiyalardan biri bo'lgan muammoli ta'lim texnologiyasi yuqori yordam beradi.

**Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, adabiyot o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini ta'minlash bilan birga o'quvchining faolligini oshiruvchi, uni mustaqil va asosli fikrlashga o'rgatuvchi asosiy omil hisoblanadi. Adabiyot ta'limida muammoli o'qitish o'quvchining shaxsiy sifatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Bugun jahon ta'lim tizimida, ayniqsa iqtisod ta'limida keng foydalanilgan mazkur texnologiyalarni adabiyot ta'limiga joriy etish, uning amaliy ko'rinishlarini ishlab chiqish adabiyot o'qitish metodikasi oldida turgan asosiy vazifalardandir.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Usmonova K., Xayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011.
2. Keldiyorov R. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari. Diss.: T., 2001.
3. Abdullayeva M. "O'zbek tili va adabiyotini o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish" fanidan ma'ruzalar matni. – T., 2017.
4. Niyozmetova R. Adabiy ta'limda kompyuter va adabiyot texnologiyalaridan foydalanish. Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.